



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilorom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Xalilayev Batirjon Taxirovich

Toshkent viloyati Pedagogik mahorat markazi,
matematika fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda axborot kompetensiyasi tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, malaka oshirish tizimidagi o'rni hamda direktorlarning mazkur kompetensiyani rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji yoritiladi. Shuningdek, axborot kompetensiyasini rivojlantirishning maqsadga yo'naltirilgan o'quv mazmunini shakllantirish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, individual yondashuvni ta'minlash hamda motivatsion muhitni shakllantirish kabi pedagogik shart-sharoitlar asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, axborot kompetensiyasi, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, individual yondashuv.

Abstract: This article scientifically substantiates the pedagogical conditions for developing the information competence of directors of preschool educational institutions within the framework of professional development programs. The study clarifies the concept of information competence, its structural components, its role in the professional development system, and the directors' need to enhance this competence. Particular attention is paid to the development of goal-oriented educational content, the creation of a practice-oriented learning environment, the effective use of innovative pedagogical technologies, the implementation of an individualized approach, and the establishment of a motivational environment.

Key words: preschool educational institutions, information competence, pedagogical conditions, innovative technologies, professional development, individualized approach.

Аннотация: В статье научно обоснованы педагогические условия развития информационной компетентности руководителей дошкольных образовательных организаций в процессе повышения квалификации. Раскрываются сущность понятия "информационная компетентность", её структурные компоненты, роль в системе повышения квалификации, а также потребность руководителей в её совершенствовании. Особое внимание уделяется формированию целенаправленного содержания обучения, созданию практико-ориентированной образовательной среды, использованию инновационных педагогических технологий, обеспечению индивидуального подхода и формированию мотивационной среды.

Ключевые слова: дошкольные образовательные организации, информационная компетентность, педагогические условия, инновационные технологии, профессиональное развитие, индивидуальный подход.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim bo'g'in bo'lib, ushbu tizim faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasi, ayniqsa, axborot kompetensiyasi darajasiga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, elektron hujjatlar aylanishi, davlat axborot tizimlari orqali boshqaruvni tashkil etish maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlaridan yuqori darajadagi axborot savodxonligi va kompetensiyani talab etmoqda. Ayrim maktabgacha



ta'lim tashkilotlari direktorlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi, raqamli boshqaruv tizimlaridan samarali foydalanishda muammolar mavjud.

Bu holat axborot kompetensiyasini rivojlantirish masalasini pedagogik nuqtayi nazardan kengroq va chuqurroq tarzda o'rganishni taqozo etadi. Shunday ekan, hozirgi kunda malaka oshirish tizimi direktorlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishi hamda kasbiy faoliyatida axborotdan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari o'zbek olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. Shin A.V. 2022-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan asoslab, rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish tizim samaradorligini belgilovchi muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Muallif maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, rahbarlarning strategik fikrlash va axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv direktorlarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamlashtirish sharoitida pedagog va rahbarlarning axborot kompetentligini shakllantirish masalasi Mavlonov N.Sh. tomonidan 2023-yilda himoya qilingan PhD dissertatsiyasida atroflicha yoritilgan. Tadqiqotda raqamli muhitda faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, Mavlonov N.Sh., Xalilayev B.T., Rabbimova M.M., Nematova Z.F. tomonidan yaratilgan 2025-yildagi o'quv qo'llanmada axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga integratsiya qilishning amaliy jihatlari ochib berilib, boshqaruv faoliyatida raqamli vositalardan foydalanish metodikasi tavsiya etilgan. Mazkur manbalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning amaliy asoslarini boyitadi.

Pedagogik kompetensiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari To'xtasinov R. va Abduqodirov A.ning 2019-yildagi ishlarida, Muslimov N.A. va Usmonboyeva M.H.ning 2018-yildagi tadqiqotlarida hamda Sayidahmedov N.S.ning 2017-yildagi asarida nazariy va metodik jihatdan asoslab berilgan. Ushbu olimlar pedagogik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar va kasbiy mahorat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib, rahbar va pedagog kadrlarning doimiy kasbiy rivojlanishi ta'lim sifati garovi ekanini ta'kidlaydilar. Mazkur ilmiy qarashlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini pedagogik shart-sharoitlar asosida tashkil etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash maqsadida kompleks metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan direktorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma, yarim tuzilgan intervyu hamda kuzatuv usullari orqali to'plandi. Shuningdek, ularning raqamli platformalar bilan ishlash jarayoni, elektron hujjatlar aylanishi va boshqaruv faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi diagnostik topshiriqlar yordamida baholandi. Tadqiqot jarayonida amaldagi me'yoriy hujjatlar, o'quv dasturlari va metodik materiallar kontent-tahlil asosida o'rganildi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, statistik qayta ishlash usullari orqali umumlashtirildi. So'rovnoma natijalari foiz ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi, intervyu va kuzatuv ma'lumotlari esa tematik kodlash usuli yordamida tizimlashtirildi. Natijalar o'zaro taqqoslash va umumlashtirish asosida pedagogik xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot kompetensiyasi – shaxsning axborotni izlash, tanlash, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash va undan samarali foydalanish qobiliyati, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda ongli foydalanishidir. Axborot kompetensiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari uchun nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki zarur va ishonchli ma'lumotni topa olish, boshqaruv qarorlarida axborotdan foydalanish, elektron hujjatlar bilan ishlash, raqamli ta'lim platformalarini boshqarish, pedagoglar va ota-onalar bilan axborot almashinuvini yo'lga qo'yish hamda axborot xavfsizligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

Demak, axborot kompetensiyasini bir nechta asosiy tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Axborotni qidirish qobiliyati – kerakli ma'lumotlarni topish va to'plash, internet, kutubxona, ma'lumotlar bazasi yoki boshqa manbalardan foydalanish;

2. Axborotni tahlil qilish va baholash – ma'lumotning ishonchliligi va dolzarbligini aniqlash, axborotni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish;
3. Axborotdan samarali foydalanish – olingan ma'lumotni amaliy faoliyatda qo'llash, masalalarni yechishda, qaror qabul qilishda, ta'lim va ilmiy faoliyatda undan foydalanish;
4. Axborot kommunikatsiyasi va xavfsizligi – ma'lumotni boshqalarga tushunarli va samarali tarzda yetkazish, intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda axborot xavfsizligiga rioya etish.

Hozirgi davrda ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarida axborot kompetensiyasi, ya'ni elektron hujjat aylanishi, raqamli hisobotlar, onlayn platformalar bilan ishlash va masofaviy boshqaruv sohalarida qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ehtiyoj sezilmoqda. Zamonaviy rahbar pedagogik va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodikalarni bilishi, pedagogik jamoani boshqarish, motivatsiya berish hamda sifatni nazorat qilish ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi muhimdir.

Doimiy ravishda malaka oshirish, avvalo, o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, yangi g'oyalar va zamonaviy metodik yondashuvlar bilan tanishtiradi hamda motivatsiyani kuchaytiradi.

Shu sababli malaka oshirish tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy rivojlanishida yetakchi o'rin tutadi. U yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini o'rganish hamda innovatsion tajribalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Malaka oshirish – bu maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va boshqaruv xodimlarining kasbiy bilim, ko'nikma va boshqaruv kompetensiyalarini zamonaviy ta'lim talablari asosida oshirish, yangilash hamda amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Ushbu jarayon:

- muassasa faoliyatini samarali boshqarishga tayyorlaydi;
- rahbarlik salohiyatini mustahkamlaydi;
- pedagogik va menejerlik yondashuvlarni chuqurlashtiradi.

Malaka oshirish kurslarining asosiy yo'nalishlari:

- ta'lim menejmenti va boshqaruv strategiyalari;
- innovatsion pedagogik yondashuvlar;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari;
- jamoani boshqarish va yetakchilik ko'nikmalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari malakasini oshirish jarayonida ta'lim jarayonini sifatli rejalashtiradi va boshqaradi, faoliyatni zamonaviy bilimlar asosida yuritadi hamda muassasa strategiyasini aniqlash, jamoani samarali boshqarish va innovatsiyalarni joriy etish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, muassasaning uzoq muddatli rivojlanish rejasini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi va bolalar uchun sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlashga xizmat qiladi.

Direktor o'z jamoasining professional rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi, ularni muvofiqlashtiradi hamda pedagoglardan yuqori natijalar kutishga imkon yaratadi.

O'zbekistonning maktabgacha ta'lim sohasida malaka oshirishni tashkil etish uchun maxsus institutlar mavjud:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malaka oshirish instituti – direktorlarning boshqaruv salohiyatini oshirishga xizmat qiladi hamda kurslar va sertifikatlar beradi;
2. 2025-yildan boshlab maktabgacha ta'lim direktorlariga menejerlik sertifikati joriy etilib, ushbu sertifikat asosida moliyaviy rag'batlantirish belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish tizimli va ilmiy jihatdan asoslangan pedagogik yondashuvni talab etadi. Maqsadga yo'naltirilgan o'quv mazmuni, amaliyotga asoslangan ta'lim, innovatsion texnologiyalar, individual yondashuv hamda motivatsion muhit axborot kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy shart-sharoitlari hisoblanadi.

Ushbu shart-sharoitlarning kompleks tarzda amalga oshirilishi direktorlarning boshqaruv faoliyatini takomillashtirish hamda maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Shin A.V. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari: ped. fan. dokt. dis. avtoreferati. – T.: 2022.
3. Mavlonov N.Sh. Raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish: p.f.f.d. (PhD) dissertatsiya. – T.: 2023.
4. Mavlonov N.Sh., Xalilayev B.T., Rabbimova M.M., Nematova Z.F. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash: o'quv qo'llanma. – Toshkent: 2025-y.
5. To'xtasinov R., Abduqodirov A. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Pedagogik kompetensiya va kasbiy mahorat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.